



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI
SAQLASH VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI
REKTORINING BUYRUG'I

14 yanvar 2026 yil.

Sh-08/63-son

Andijon shahri

Magistraturaning "2023 yil qishki qabuli" bitiruvchi bosqich talabalariga 2026 yil Yakuniy davlat attestatsiyalarini o'tkazish to'g'risida

Oliy ta'limning davlat ta'lim standartiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 13-dekabrda "Oliy va kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 836-sonli qarori va shu qarorning 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom" ga, "Magistratura Nizomi" va o'quv rejalariga muvofiq institutida bitiruvchi kurs talabalariga Yakuniy davlat attestatsiyalarini o'tkazish maqsadida

BUYURAMAN:

1. Andijon Davlat tibbiyot institutida magistratura mutaxassisliklari bitiruvchi bosqich talabalarining mutaxassislik fanlari bo'yicha Yakuniy Davlat attestatsiyasini o'tkazish uchun quyidagi tarkibda attestatsiya hay'ati tuzilsin va 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Attestatsiya sinovlarini shaffof va adolatli tarzda o'tishini ta'minlash maqsadida sinovlar kuzatuv kameralari o'rnatilgan binolarda o'tkazilsin.
2. Andijon Davlat tibbiyot institutida magistratura mutaxassisliklari bo'yicha bitiruvchi bosqich talabalarining «Sog'liqni saqlash menejmenti» fanidan Yakuniy Davlat attestatsiyasi test sinovlari o'tkazish uchun quyidagi tarkibda attestatsiya hay'ati tuzilsin va 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Attestatsiya sinovlarini shaffof va adolatli tarzda o'tishini ta'minlash maqsadida sinovlar kuzatuv kameralari o'rnatilgan binolarda o'tkazilsin.

3. Bitiruvchi bosqich talabalarning magistrlik dissertatsiyasi himoyasida qatnashuvchi hay'at a'zolari tarkibi tuzilsin va 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
4. Magistratura mutahassisliklari bitiruvchi kurs talabalariga konsultatsiyalar jadvali 4-ilovaga asosan tasdiqlansin.
5. Yakuniy Davlat attestatsiyasi sinovlari turlari va ularni o'tkazish muddatlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
6. Yakuniy davlat attestasiya apellyasiya hay'ati tarkibi 6-ilovaga asosan tasdiqlansin.
7. Ushbu buyruqni ijrosini nazorat qilish o'quv ishlari bo'yicha prorektor Z.N.Mamasoliyev zimmasiga yuklatilsin.

Rektor v.v.b:



Z.N.Mamasoliyev